

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 8 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) 18-24
- Раунов Холмамат*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ
МИСОЛИДА) 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*
FERMER XO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI
MISOLIDA) 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI
XIZMATLARI 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI 60-64

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF
ENTERPRISES 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*
ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 76-84

| | |
|---|---------|
| <i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR | 85-92 |
| <i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI | 93-98 |
| <i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI | 99-105 |
| <i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ | 106-110 |
| <i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI | 111-114 |
| <i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ | 115-121 |
| <i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI | 122-127 |
| <i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ | 128-137 |
| <i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ | 138-150 |
| <i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ..... | 151-158 |
| <i>Раббимов Жаҳонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ | 159-164 |
| <i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ | 165-174 |

Гадоев Сўҳроб Жумакулович
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
ЙЎЛЛАРИ 175-181

Бекжанов Дилмурод Йўлдашович
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ 182-193

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) 194-200

Xayridinov Abbosxon Anvarovich
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 201-205

Quramboyev Alisher Maxsudovich
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI 206-211

Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR
MAQSADI..... 212-217

Turabova Sevara Kattaqulovna
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV 218-224

Пардаева Марҳабо Давлатовна
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ 225-233

Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI 234-240

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR 241-246

Юсупова Феруза Зойировна
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ 247-251

Teshaboev Muhiddin Marifovich
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI 252-257

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

- Soatova Nodira Isomitdinovna*
LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI 258-265
- Narmuratov Zayniddin Radjabovich*
FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA 266-269
- Yusupova Omina Muhammadzoi kizi*
DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE 270-276
- Бозорова Хулкар Одинакуловна*
РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ 277-282
- Matyakubov Oybek Quralbayevich*
KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI 283-288
- Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*
ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ 289-293
- Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*
O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI 294-299
- Xamzayev Otaxon Erkinovich*
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI 300-305

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

- Абдурахманова Нодирахон*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ 306-310
- Сафоева Садокат Мусоевна*
ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА 311-320
- Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ 321-330

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

- Zoirova Lola Xamidovna*
TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

| | |
|---|---------|
| FOYDALANISH | 331-336 |
| <i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) | 337-343 |
| <i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH | 344-349 |
| <i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS | 350-355 |
| <i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ.. | 356-361 |
| <i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 362-368 |
| <i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 369-373 |
| <i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ | 374-384 |
| <i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR | 385-390 |
| <i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING | 391-398 |
| <i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI | 399-409 |
| <i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR | 410-414 |
| <i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI | 415-421 |

| | |
|---|---------|
| <i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS | 422-427 |
| <i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI | 428-433 |
| <i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD | 434-441 |
| <i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 442-447 |
| <i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 448-454 |
| <i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR | 455-460 |
| <i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH | 461-469 |

13.00.00- Педагогика фанлари

Norboyev Farxod Chorshanbiyevich
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: norboevf@tersu.uz

KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR

Annotatsiya. Maqolada T.M.Amabilening kreativlik va innovatsiyaning komponental nazariyasi, uning rivojlanish tarixi, hozirgi kunda kreativlik va innovatsiyalar borasidagi tadqiqotlarda tutgan o'рни bayon qilingan. Tashkilotlarda innovatsiyalar yaratilishida ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o'zida jamlagan nazariy umumlashma model, uning innovatsiyalar borasida tadqiqotlarda o'рни tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kreativlik, innovatsiya, komponent, kreativlik va innovatsiyaning qismlar nazariyasi, motivatsiya, motivatsiya sinergiyasi

Norboyev Farkhod Chorchanbiyevich
Base-doctoral student, Termez state university

MODERN THEORIES OF CREATIVITY AND INNOVATION

Abstract. The article describes the component theory of creativity and innovation by T.M.Amabile, the history of its development, the role in modern research of creativity and innovation. A theoretical generalizing model was analyzed, including social and psychological factors that are important for creating innovations in organizations, its role in innovation research.

Keywords: creativity, innovation, component, component theory of creativity and innovation, motivation, motivational synergy

Норбоев Фарход Чоршанбиевич
Базовый-докторант, Термезский
государственный университет

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕОРИИ КРЕАТИВНОСТИ И ИННОВАЦИЙ

Аннотация. В статье изложена компонентная теория креативности и инноваций Т.М.Амабиле, история ее развития, роль в современных исследованиях креативности и инноваций. Была проанализирована теоретическая обобщающая модель, включающая социальные и психологические факторы, имеющие значение для создания инноваций в организациях, ее роль в исследованиях инноваций.

Ключевые слова: креативность, инновация, компонент, компонентная теория креативности и инноваций, мотивация, мотивационная синергия

DOI: <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N55>

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni jalb etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash borasida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Zamonaviy jamiyatlarda jamiyat, davlat, tashkilotlar rivojining asosiy omillaridan biri sifatida innovatsiyalar, ularning doimiy tarzda yaratilish, davlat va jamiyat hayotiga tatbiq etilishi tushuniladi. Innovatsiyalar yaratilishi va tatbiq etilishi qanday omillar muhim ahamiyat kasb etadi? Kreativlik va innovatsion faoliyat rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlar zarur? Ayni shu savollarga javoblar innovatsiyalar borasida islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, kreativlik va innovatsion faoliyatni ilmiy uslubiy qo'llab quvvatlash uchun asos sifatida xizmat qiladi oladi. Bu borada kreativlik va innovatsiyalar borasida jahon olimlari yondashuvlari, ular tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar bilan tanishish va ularni chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Maqolada ayni shunday nazariyalardan biri – Tereza Amabilening kreativlik va innovatsiyaning komponental nazariyasi mazmuni va rivojlanish tarixi bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kreativlik va innovatsiyaning komponental nazariyasi shaxsning kreativ faoliyati va tashkilotlarda innovatsiyalar yaratilishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy va psixologik omillarni o'z ichiga qamrab oluvchi nazariy umumlashma model hisoblanadi. Komponental nazariyaga ko'ra, kreativlikka ta'sir uchta individuallikka xos komponentlar: sohaga oid malakalar (mos soha yoki sohalar bo'yicha tajriba), kreativlikka oid jarayonlar (yangicha fikrlashga ko'maklashuvchi kognitiv va shaxs jarayonlari) va vazifa motivatsiyasi (faoliyatda qiziqish, qoniqish yoki shaxsiy mas'uliyat hissi bilan ishtirok etish uchun ichki motivatsiya)dan tarkib topadi. Individddan tashqaridagi komponent – bu muhit, xususan ijtimoiy muhitdir. Nazariya kreativlik barcha komponentlarning uyg'unlashishi talabini qo'yadi; ichki motivatsiyaga ega, soha bo'yicha yuqori tajriba hamda yuksak kreativ fikrlash ko'nikmalariga ega shaxs kreativlikni yuqori darajada qo'llovchi muhitda ishlayotganda kreativlik oliy o'rinda turishi shart [2; 134-135 s].

Sohaga oid malakalar mutaxassis ishlayotgan soha, misol uchun mahsulotni loyihalashtirish yoki elektr injenersiyasi bo'yicha uning bilimlari, tajribasi, texnik ko'nikmalari, intellekt va talantini o'z ichiga oladi. Ushbu malakalar o'zida inson butun kreativ jarayonda tayanishi mumkin bo'lgan boshlang'ich materiallar – ehtimoliy javoblarni yaratish uchun kombinatsiyalanadigan elementlar va javob imkoniyatlarining hayotiyiligini baholashda tayaniladigan tajribani o'zida ifodalaydi.

Kreativlikka oid jarayonlar (dastlab kreativlikka oid ko'nikmalar deya nomlangan) kognitiv uslub va mustaqillik, tavakkal qilish va muammoga yangi nazar bilan qarashga ko'maklashuvchi shaxsiy xususiyatlar, shuningdek tartiblashgan ish uslubi va yangi g'oyalarni shakllantirish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu kognitiv jarayonlar ma'lumotni sintezlash uchun keng qamrovli, moslashuvchan kategoriyalardan foydalanish qobiliyati va idrok hamda ijro "senariylari"dan chiqa olish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shaxsiy jarayonlar o'z-o'zini tartibga solish va ikki xil talqin (ikkima'nolilikka)ga sabrlilikni o'z ichiga oladi.

Vazifa motivatsiyasi. Ichki vazifa motivatsiyasi bu ishtiyotdir: bu shartnoma mukofotlari, tashqi nazorat, musobaqa, baholash yoki nimanidir muayyan tarzda bajarish talabidan kelib chiquvchi tashqi motivatsiya emas, balki vazifani hal etish yoki muammoni yechish qiziqarliligi, qoniqarli ekanligi yoki shaxsiy chaqiriq uyg'otishi sababli yuzaga keluvchi motivatsiya. Komponental nazariyaning asosiy qoidasi kreativlikning ichki motivatsiya tamoyili hisoblanadi: insonlar ularga tashqi motivatorlar emas, balki qiziqish, qoniqish,

mamnuniyat va ishning o'zidan chaqiriq his qilayotganliklari o'zlariga motivatsiya berayotganligini his qilishganda eng kreativ bo'lishadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, jiddiy tashqi motivatsiya ichki motivatsiyani so'ndirishi sabab, ijtimoiy muhitda ularning borligi yoki yo'qligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ichki motivatsiyani qo'llab quvvatlovchi kuchlarning mavjudligi yoki yo'qligiga ham tegishli.

Nazariya bo'yicha so'nggi komponent tashqi komponent- bu *ish muhiti* yoki umumiyroq holatda, ijtimoiy muhit. Bu ichki motivatsiyani so'ndiruvchi barcha tashqi motivatorlarni, shuningdek ichki motivatsiya va kreativlik uchun to'siq yoki stimulyat sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan muhitning boshqa omillarini o'z ichiga oladi. Tashkilotlar borasida o'tkazilgan tadqiqotlar kreativlikni bloklovchi bir qator ish muhiti omillarini aniqlagan. Bular jumlasiga yangi g'oyalarni qattiq tanqid qilish normasi, tashkilot ichidagi siyosiy muammolar, mavjud vaziyat (tartib)ga urg'u berilishi, yuqori rahbariyatdagi konservativ, past riskli ustanovkalar va oshiqcha vaqt tugashi (muddat) bosimi kiradi. Kreativlikni stimullovchi omillar sirasiga ishdan ijobiy chaqiriqni his qilish, turli xil malakalarga ega va g'oyaga yo'nalgan jamoalarning birgalikda ishlashi, ishni bajarishdagi erkinlik, yangi g'oyalarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi rahbarlar; kreativ ishni munosib taqdirlash va kreativlikni qo'llovchi qarashlar orqali innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi top menejment; yangi g'oyalarni ishlab chiqish mexanizmlari va butun tashkilot bo'ylab g'oyalarni faol almashinish normalari kiradi.

Natijalar va muhokama. Kreativlikning komponental nazariyasi dastlab 1983 yilda Tereza Amabile tomonidan "kreativlikning komponental modeli" sifatida ishlab chiqilgan. O'shandan beri u sezilarli evolyutsiyani boshidan kechirdi.

1988 yilda Amabile nazariyaning tashkilotlardagi ham kreativlik ham innovatsiyalarni qamrab oluvchi kengaytma holatini nashr etadi. Individual kreativlikning asosiy modeli o'zgarishsiz qolgan, ammo nazariyaga ayni to'rt komponent yaqin hamkorlikda ishlovchi jamoalar kreativligiga ta'sir ko'rsatishi haqida faraz qo'shilgan. Yanada muhimrog'i, innovatsiya uchun parallel komponentlar jamlanmasi taklif etilgan. Kengaygan nazariyaga muvofiq, innovatsiya quyidagilarga bo'ysunadi:

- (a) vazifa sohasidagi zaxiralar (individual darajadagi sohaga oid malakalar analogi);
- (b) innovatsion menejment malakalari (individual darajadagi kreativlikka oid jarayonlar analogi);
- (c) yangilik kiritish motivatsiyasi (individual darajadagi vazifa motivatsiya analogi) [1; 123-128 s].

Yangilik kiritish motivatsiyasi. Ushbu komponent tashkilotning innovatsiya tomon asosiy yo'nalishidan tarkib topadi. Ushbu yo'nalish birinchi navbatda eng yuqori daraja: rahbar, prezident, bosh ta'sischiidan kelib chiqishi shart. Ammo innovatsiya uchun o'rta bo'g'indagi menejment roli ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu darajadagi menejment ko'pincha eng yuqori darajada yo'nalishini yetkazish va interepretatsiya (talqin) uchun mas'ul bo'ladi.

Yangilik kiritish motivatsiyasini korporativ tasavvur sifatida qabul qilish mumkin; ideal holda, prezident (rahbar yoki bosh direktor) tashkilotning innovatsiyalarga asoslangan kelajagini tasavvur qiladi, so'ngra ushbu tasavvurni qisqa va ishonchli xabarda ifodalaydi. Innovatsiyaning umumiy maqsadi aniq va ko'p hollarda innovatsiyaning umumiy sohalari missiya komponenti sifatida qoladi. Tadqiqotlar tasdiqlashicha, yangilik kiritish motivatsiyasining eng muhim elementlari quyidagilar: umumiy holatda innovatsiyalarga

berilayotgan qadr, risk tomon yo'nalganlik (mavjud holatni saqlashga yo'nalganlik emas), tashkilot a'zolarining ular nimalarga qodirligi borasidagi g'urur hissi va kelajakka nisbatan yo'nalishning hujumkor strategiyasi (tashkilotning o'tmish holatini shunchaki himoya qilish borasidagi himoyaviy strategiya emas) [6; 42 s].

T. Amabile tadqiqotida aniqlangan bir qator muhit omillari yangilik kiritish motivatsiyasiga aniq mos keladi. Innovatsiya qadrlanadigan, g'ayrat namoyish etiladigan, ongli tavakkal va yangi g'oyalarni tadqiq qilish qo'llab-quvvatlanadigan tashkilot iqlimi ijobiy omillarni tashkil qilsa, yangi ishlanmalarga tashkilot doirasida e'tiborsizlik va mavjud holatni saqlashga oshiqcha urg'u berilishi salbiy omillar qatorida turadi.

Vazifa sohasidagi zaxiralar

Bu komponent tashkilotdagi vazifa borasidagi ishlarni yengillashtirish uchun mavjud barcha narsalarni qamrab oladi. Vazifa sohasi – bu innovatsiyaga mo'ljallangan asosiy soha. Bu boradagi zaxiralar o'ziga keng tarmoqli komponentlar: konkret innovatsiya joriy etish imkoniyati borasida bilimlarga ega kishilar, muvofiq bozorlar bilan tanish kishilar, ushbu sohada boshqa turdagi muvofiq tajribaga ega kishilar, ushbu vazifa borasida ajratilgan fond (mablag'), moddiy zaxiralar (tashkilotda ishlab chiqarishning mavjud vositalari), ishlab chiqarish tizimi, bozorni o'rganish uchun manbalar, muvofiq ma'lumotlar bazalari va muvofiq sohada xodimlarni tayyorgarlikdan o'tkazilganligini qamrab oladi. Ushbu tuli xil zaxiralarni ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish bo'limi kabi an'anaviy komponentlardan tashqari tashkilot ichidagi moliya, ishlab chiqarish (yoki shu turdagi funktsiya), xodimlarni qayta tayyorlash va tashkilotni rivojlantirish singari turli xil bo'limlar va bo'linmalardan topish mumkin.

Modomiki zaxiralar zaruriyati aniq ekan, tadqiqotlarda ularga boshqaruv uslubi bilan omillardan ko'ra kamroq e'tibor qaratiladi. Ammo zaxiralar ahamiyatini aniq ko'rsatib bergan tadqiqotlar mavjud [3; 57-59 s]. Ushbu tadqiqotlarda yetarlicha zaxiralar kreativlikka ko'maklashuvchi muhit omillari orasida uchinchi o'rinni egallagan bo'lsa, zaxiralar yetishmasligi kreativlikka to'sqinlik qiluvchi muhit omillari orasida oltinchi o'rinda bo'lgan.

Innovatsion menejment malakalari

Bu komponent tashkilot darajasida va alohida bo'limlar hamda loyihalar darajasida boshqaruvni yaxlit holda qamrab oladi. Albatta, ushbu komponent haqida qolgan ushbu ikki komponentni birlashgan holda tadqiq qilinganidan ko'ra ko'proq ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlari mavjud. Individual kreativlikka va tashkiliy innovatsion jarayonlarning boshqa jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi menejment malakalari va uslublari quyidagilarni o'z ichiga oladi: erkinlik va cheklovlar orasida kerakli muvozanat, qo'yiliish va natija borasida qat'iy, ammo ushbu erishilishda protseduraviy darajada erkinlik bo'lgan maqsadlarni belgilash; ishtirok va hamkorlik asosidagi aralash boshqaruv [7; 689-695 s]; ham malakalar va qiziqishlarga mos keluvchi ish topshiriqlari; yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga va gorizontal aloqada ochiq kommunikatsiya tizimlari; bajarilgan ish haqida tez-tez, konstruktiv va quvvatlovchi mulohazalar (javoblar) [5; 67-78 s]; kreativ muvaffaqiyat bilan bir qatorda kreativ mehnatni ham tan olish, adolatli va yaxshi mukofotlash (mukofotlash tizimi an'anaviy moddiy, pul bilan va ishda ko'tarish orqali rag'batlash bilan birgalikda ish topshiriqlarini tanlashda erkinlik oshishi, ishni muddatlash va bajarish metodlarida erkinlik oshishi, kasbiy o'sish uchun keng imkoniyatlar singari ichki mukofotlarni ko'p miqdorda qamrab olishi zarur); muhim qarorlar qabul qilinishida ko'plab insonlar ishtirokini talab etuvchi diffuz qarorlar ta'siri; ko'plab formal va murakkab boshqaruv tuzilmalari yo'qligi; professionalizm namunasi

bo'lgan menejerlar; iyerarxiyada keraksiz darajalar mavjud emasligi [8; 54-56 s]; muammoni innovativ hal etish uchun kuch vositalarining keng miqyosi; ichki raqobat ham, tez-tez ogohlantiruvchi baholash (tekshiruv)lar mavjud emasligi; ochiqcha ixtiyoriy vaqt cheklovlari mavjud emasligi; guruhlar, bo'limlar va bo'linmalar orasida ixtiyoriy qo'llab quvvatlov va tez-tez hamkorlik.

Ushbu komponentlar alohida shaxslar va jamoalarga tasir ko'rsatuvchi ish muhitini yaratadi. 1996 yilda Amabile individual kreativlikning qayta ishlangan original modelini o'z kitobida e'lon qiladi, bu kitob Mary Ann Collins, Regina Conti, Elise Phillips, Martha Picariello, John Ruscio va Dean Whitney kabi doktorantlar hamda tadqiqotchilarning qo'shimchalarini o'z ichiga olgan.

Nazariya e'lon qilingandan so'ng o'tgan o'n yillikda o'tkazilgan tadqiqotlar nazariyaning eng muhim komponentlaridan biri — ichki motivatsiya tamoyiliga modifikatsiyalar taklif etishdi. Garchi ish muhitidagi ko'plab tashqi motivatorlar ichki motivatsiya va kreativlikni so'ndirsa ham, ba'zi tashqi motivatorlar bunday qilmaydi. Agar mukofotlar yoki boshqa motivatorlar nazorat qilinayotgan yo'sinda taqdim etilsa, insonlarni sotib olinayotganlik yoki talab etilayotganlik hissiga olib kelsa, unda so'ndirish effekti yuz berishi mumkin. Ammo agar mukofotlar insonlar kompetentligini tasdiqlasa (masalan, ular ishining qadrini tan olish orqali) yoki ularni o'ziga yoqadigan ish bilan yanada chuqurroq shug'ullanishga olib kelsa (misol uchun, ularga samarali ishlash uchun ko'proq zaxiralar berish orqali), ichki motivatsiya va kreativlik haqiqatda kuchayishi mumkin. Ushbu jarayon "motivatsional sinergiya" deya nomlanadi [4; 185-201 s].

2008 yilda Amabile Jennifer Mueller bilan birgalikda nazariyaning affektiv holat individual kreativlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi borasidagi yangi empirik dalillarga asoslangan yangi modifikatsiyasini nashr qiladi. Ushbu modifikatsiyada ish muhitidan ta'sirlanishi mumkin bo'lgan affekt kreativlikka oid jarayonlarga ta'sir qiladi.

Xulosa. Xulosa shuki, kreativlik hamda innovatsiya bugungi jamiyatlar iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishining, farovonligining asosiy kalitlari sifatida qaraladi. Ta'lim tizimimizda, ish jarayonlarimizda kreativlik, yangi g'oyalar, innovatsiyalarning ish sifatini yaxshilashi, jiddiy iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelishi haqida qayg'urar ekanmiz, kreativlik va innovatsiyalar haqida eng so'nggi ilmiy ma'lumotlar, nazariyalardan xabardor bo'lishimiz, ularni o'z ilmiy va amaliy faoliyatimizda sinovdan o'tkazishimiz talab etiladi. Tashkilotlar boshqaruvida, ilmiy va innovatsion faoliyatda kreativlik hamda innovatsiyaga ta'sir ko'rsatuvchi ichki psixologik omillar (vazifa motivatsiyasi), tashkilotning moddiy, ilmiy zaxiralari, inson kapitali (vazifa sohasida zaxiralar), boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanishi (innovatsion menejment malakalari) haqida borasida so'nggi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan xabardorlik hamda ushbu bilimlarni faoliyatda oqilona qo'llash tashkilotlar innovatsion faoliyati samaradorligi oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. **Amabile T. M.** A model of creativity and innovation in organizations [Journal] // Research in organizational behavior, / ed. Cummings In B. M. Staw & L. L. - 1988. - pp. 123-167..
2. **Amabile Teresa M.** Componential Theory of Creativity/Encyclopedia of management theory / edited by Eric H. Kessler, Pace University 2013 SAGE Publications. 134-135 s.

3. Amabile, T.M., & Gyskiewicz, S.S. *Creativity in the R & D laboratory*. Technical Report Number 30. Greensboro, N.C.: Center for Creative Leadership. 1987 y.
4. Amabile, T.M. Motivational Synergy: Toward New Conceptualizations of Intrinsic and Extrinsic Motivation in the Workplace. *Human Resource Management Review*, 3, 1993 y. 185-201.
5. Ashford, S.J., & Cummings, L.L. Proactive feedback seeking: The instrumental use of the information environment. *Journal of Occupational Psychology*, 1985 y. 58, 67-80.
6. Havelock, R.G. *Planning for innovation*. Ann Arbor: Center for Research on Utilization of Scientific Knowledge, University of Michigan. 1970 y.
7. Kimberley, J.R., & Evanisko, M.J. Organizational innovation: The influence of individual, organizational and contextual factors on hospital adoption of technological and administrative innovations. *Academy of Management Journal*, 24, 1981 y. 689-713.
8. Kanter, R.M. *The change masters*. New York: Simon and Schuster. 1983 y.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).